

# NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yilning 1- fevral holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

*(O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi  
Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)*



## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**21 556**

118,8 %



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**20 310**

116,6 %



## Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilning yanvar oyida)


**312**

75,4 %

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnda, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)




# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

5




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,  
ovchilik va bu sohalarda  
xizmat ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliqchilik xo'jaligi



# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

6



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar







2021-yilning 1-fevral holatiga ko'ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 309 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan):

- ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 17,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 93,0 %);




- suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning - 8,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.

# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




# Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

9



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

11




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,6 %** ga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**4,3 %** ga oshdi



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**17,9 %** ga oshdi




## Oilaviy korxonalar




**19,2 %** ga kamaydi



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar




# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


12



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

**Ro'yxatdan o'tgan**  
**19 283**

kichik korxonalar  
**742**

mikrofirmalar  
**18 541**

**Faoliyat ko'rsatayotgan**  
**18 098**

kichik korxonalar  
**734**


mikrofirmalar  
**17 364**

**2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan**  
**300**


kichik korxonalar  
**2**

mikrofirmalar  
**298**

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 3 877 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 776 taga yoki 25,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 694 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 647 taga yoki 21,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 47 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73 taga yoki 60,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 9 763 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 065 taga yoki 26,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 357 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 942 taga yoki 26,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 188 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga yoki 1,6 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



## Xususiy korxonalar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy – huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 5 495 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 555 taga yoki 11,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 905 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 283 taga yoki 6,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 65 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 taga yoki 28,6 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 245 tani tashkil etib, ulardan 240 tasi yoki 98,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 6 taga yoki 13,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar oyida viloyatimizda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi  
(2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)**

16



# Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)*

17


	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>61</b>	<b>60</b>	<b>120</b>	<b>215</b>	<b>240</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>18</b>	<b>32</b>	<b>29</b>
<b>Sanoat</b>	<b>44</b>	<b>40</b>	<b>71</b>	<b>130</b>	<b>146</b>
<b>Qurilish</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>3</b>	<b>12</b>	<b>14</b>
<b>Savdo</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>8</b>	<b>18</b>	<b>27</b>
<b>Tashish va saqlash</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>3</b>
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	<b>-</b>	<b>1</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>3</b>
<b>Axborot va aloqa</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>2</b>	<b>2</b>
<b>Boshqa turlar</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>11</b>	<b>13</b>	<b>15</b>

## Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	<b>Jami</b>	<b>shundan:</b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>240</b>	<b>149</b>	<b>91</b>
Navoiy shahri	75	54	21
Zarafshon shahri	17	10	7
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	8	5	3
Qiziltepa	15	10	5
Navbahor	9	7	2
Karmana	63	37	26
Nurota	26	14	12
Tomdi	8	7	1
Uchquduq	10	2	8
Xatirchi	9	3	6

**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

18



# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni

(2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

19



2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Navoiy (24,0 %) va Zarafshon (7,8 %) shaharlari, Karmana (15,7 %), Qiziltepa (12,6 %), Xatirchi (12,4 %), Navbahor (9,7 %), Nurota (7,5 %), Uchquduq (4,5 %), Konimex (3,8 %), Tomdi (2,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar oyida, birlikda)

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Navoiy shahrida (28,2 %), Zarafshon shahrida (8,7 %), Xatirchi (8,7 %), Karmana (16,7 %), Qiziltepa (6,7 %), Navbahor (9,3 %), Uchquduq (7,4 %), Nurota (8,2%), Konimex (3,2 %), Tomdi (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'grisidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Navoiy viloyati Statistik  
registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel: 79 223-62-47**